

**IKKI HALQ DILBANDI.
(MAQSUD SHAYXZODA)**

Eshboyev Samandar Xayrilla o'g'li

TDTrU “AYM” fakulteti YMSH-4 guruh talabasi.

samandareahboyev00@gmail.com +998971115760

Anotatsiya:” Hayotning qiyinchiliklaridan qo'rqqanimizda, yashashdan ma'no qolmas edi”. Ushbu maqola Ozarbayjon va Ozbekiston xalqining sevimli shoiri zabardast drammaturg, adabiyotshunos olim, mohir tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi haqida so'zlaydi.

Kalit so'zlar: Adib, roman, dramma, asarlar, she'riyat, qatag'on, xalq dushmani.

*Hazrat Navoiyning o'pib qo'lini
O'zbek vodiysida otimni surdim,
Ijod karvonining uzoq yo'lini-
Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim yurdim
(“Toshkentnoma”dan)*

O'zbek adabiyotining XX asrdagi ulkan vakillaridan biri, ikki xalq: o'zbek va ozarbayjon xalqlarining farzandi Maqsud Ma'sum o'g'li Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Agdash(Oqtosh) shahrida ziyoli oilasida tug'ilgan. Otasi Ma'sumbekning kasbi shifokorlik bo'lib, she'riyatni nihoyatda sevgan, farzandlariga ham adabiyotga muhabbat tuyg'usini singdirgan inson edi. Onasi Fotimaxonim ham ziyoli ayol bo'lganlar. Shayxzoda tug'ilgan shahrida maktab ta'limini olgach, Ozarbayjon poytaxti Bokudagi Oliy pedagogika institutiga sirdan oqishga kiradi. 1925-yildan muallimlik qila boshlaydi. 1928-yili u hurfikrligi, ya'ni Ozarbayjonni mustaqil davlatga aylantirish haqidagi erkin fikrlari uchun ayblanib, Toshkentga badarg'a qilinadi. Shu davrdan boshlab to umrining so'ngiga qadar Shayxzodaning hayoti O'zbekiston bilan bog'lanadi. U avval turli gazeta va jurnallar tahririyatlarda muharrir, 1935-1938-yillarda O'zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan hayotining So'ngigacha Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti “O'zbek mumtoz adabiyoti” kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlaydi. 1948-yili Shayxzoda Navoiy lirikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib boradi. Shoир filologiya fanlar nomzodi, dotsent. Shayxzoda Navoiy ijodi bo'yicha doktorlik disertatsiyasini ham tayyorlagan edi. Afsuski bevaqt o'lim bu katta maqsadni amalga oshirishga yo'l qo'yadi.

Shayxzoda ijod sahnasiga kirib kelgandan so'ng dastlabki she'riy to'plamlari 1929-yildan e'lon qilingan. 30-yillarda shoirning “O'n sher”, “Undoshlarim”, “Uchinchi kitob”, “Jumhuriyat” nomli to'plamlari dunyo yuzini ko'radi. Ana shu to'plamlari bilan

Shayxzoda o'zbek adabiyotida o'ziga xos shoir sifatida tanildi va tan olindi. Shoir “**Toshkentnoma**” da haqli ravishda yozgan edilar:

Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi
O'pkamga to'ldirdi she'r havosin...
Lekin shoirlikning nozik tolei
Kuldi Sirdaryoning havzalarida...

Shoirning ijodi yuksalgan va eng baland nuqtalarga yetgan payti bu II-jahon urishi davriga to'g'ri keladi. Insoniyatga tahdid solayotgan fashizimni yo'q qilish, tiriklikni shon-u sharafni, tinchlikni saqlashni, xalqni ruhan yengimaslikka, matonatga da'vat etish shoirning huddi shu yili chop etilgan “**Kurash nechun**”, “**Jang va qo'shiq**”, “**Kapitan Gastello**”, “**Ko'ngil deydiku**” kabi to'plamlarning bosh mavzusi bo'ldi. 1944-yilda Shayxzoda ijodida katta bir asar dunyoga keldi, ya'ni “**Jaloliddin Manguberdi**” drammasi.

XIII-asrlarda o'lkamiz Chingizzon bosqinidan aziyat chekayotgan bir paytda jang maydoniga O'zbekning mard o'gloni bo'lmish Xorazm alp yigitи Sulton Alovuddin Muhammadning o'g'li Jaloliddin Manguberdi chiqadi. O'z o'lkasini mustaqilligini saqlab qolish niyatida Jaloliddin Chingizzonga qashqatqich zarbalar berib unga munosib qarshilik ko'rsatadi. Bu drammada tarixiy shaxslar badiiy voqeiliklar adib tomonidan juda ham mohirlik bilan tasvirlangani “**Jaloliddin Manguberdi**” drammasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Adib hayotlik chog'ida bu tarixiy asar to'laligicha chop etilmay qoladi. Faqatgina muallif vafotidan 21 yil o'tibgina ilk bor o'zbek tilida 1988-yilda chop etiladi. Hamza nomidagi o'zbek akademik dramma teatri (hozirda O'zbekiston milliy akademik dramma teatri)da “**Jaloliddin Manguberdi**” pyesasi sahnalashtirilgan. Mohir sarkarda Jaloliddin rolini sahnada O'zbekiston halq artisti marhum Shukur Burxonov maxorat bilan ijro etgan.

Shayxzoda urushdan keyingi yillarda tinch hayot va yaratuvchilik zavqini tarannum etgan she'rlardan iborat “**O'n besh yilning daftari**”, “**Shula**”, **Chorak asr devoni**”, “**Olqishlarim**” kabi to'plamlarini chop ettiradi. Toshkent haqida teran falsafiy, ehtirosli tuyg'ularga boy “**Toshkentnoma**” asarini 1957-yilda yozadi. Adib tarixiy mavzulardan chetlashmagan holda 1960-yilda “**Mirzo Ulug'bek**” tragediyasini yaratadi. O'zbek drammaturgiyasida judda katta o'rniga ega bo'lgan bu pyesada buyuk bobokalonimiz, falakiyat ilmi mutahassis ulug' Amir Temurdan keyin Temuriylar sultanatini saqlab qolgan va uni rivojlanishiga o'zining beqiyos hissani qo'shgan Mirzo Ulug'bek siyoshi buyuk mardonavorlikni o'zida aks ettirgan shaxs sifatida e'tirof etilgan. Ushbu pyesaning asosiy roli hisoblangan Ulug'bekni ham mahoratlak aktyor marhum Shukur Burxonov mahorat bilan ijro etgan. Ushbu tragediya asosida 1964-yilda Shayxzoda “**Ulug'bek hazinasi**” nomli kinosenariyni yozadi.

Maqsud Shayxzoda ham ko'p o'zbek fidoiylari kabi o'sha davrda O'rta osiyo ustidan o'z hukmini o'tkazayotgan SSSR atalmish davlatning “Qatag'on” qurbanini bo'ldi. O'tgan asrning 50-yillar boshlarida Shayxzoda ijodi qoralanib “Xalq dushmani”

degan tuxmatlar bilan qamaladi. 50-yillar o'rtalariga kelib "Qatag'onchilik" siyosati qoralanib ko'pchilik beayb insonlar kabi Shayxzoda ham ozod etiladi. Ozodlikka chiqqan Maqsud Shayxzoda hech qanday tushkunlikka tushmagan holda o'z ijodini yanada mukammal darajaga olib chiqish maqsadida ijod qilishda davom etadi. Adib faqat dramma, she'rlar va dostonlar yozish bilan chegaralanmay ko'pgina dunyo adabiyot nomoyondalari Mayakovskiy, Pushkin, Shekspir, Lermontov asrlarini o'zbek tiliga tarjima qilish bilan ham shug'ullangan. Shayxzoda tarjimasiga asoslangan Shekspirning "**Hamlet**", "**Romeo va Julietta**" asarlari o'zbek dramma teatrida sahnalashtirildi. Adabiyotshunos olim sifatida Shayxzoda so'z mulkining sultonni Mir Alisher Navoiy ijodini sevib o'rgangan. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan "Navoiyning lirk qahramoni haqida"(1948) maqolasidan keyin "Navoiy lirkasining ba'zi bir poetik usullari haqida"(1959), "Ustodning san'atxonasi"(3 qismli maqola, 1965-66), "G'azal mulking sultonni"(1966), "Tazkirachilik tarixidan" (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.

Shayxzoda adabiyotshunos tanqidchi sifatida ham ancha shuhrat qozongan. O'zbek halq og'zaki ijodining Fozil shoir singari namoyondalari, "Alpomish", "Shirin bilan Shakar" kabi asarlari, O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Furqat, Muqumi, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Bobur jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy A.S.Pushkin, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, Sh. Rustavelli, Chexov kabi namoyondalariga bag'ishlangan bir qancha asarlar yozdi. Pedagog sifatida ko'pgina shoir, adabiyotshunos va tanqidchilarni yetishib chiqishiga munosib hissa qo'shdi.

Buyuk shoir, adabiyotshunos, drammaturg, tanqidchi olim va o'z o'rnila "Ikki halq dilbandi" Maqsud Shayxzoda o'g'ir va uzoq hastalik tufayli bevaqt hayotdan ko'z yumadi. Adib o'zidan keyin qoldirib ketgan o'lmas asarlarini oqib turib " shu qisqagina umrida shunchalik buyuk ishlar qilgan ekanda..." deb o'ylanib qolasan kishi!..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziyouz.com

2. M.M. Dexqonov, R.S. Abdullayeva, A.R. Sotvoldiyev "Adib bolaligi yohud Shayxzoda siyratlariga nazar" maqola. Toshkent, 2021.

3. Maqsud Shayxzoda, Ziyonet.uz. 2013.

4. Toshkent ensklopediyasi. 2009 y.